

**MOVAROUNNAHR DIYORIDAN YERISHIB CHIQQAN
BUYUK MUHADDIS**

*Dinora Eshboyeva,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik yo'nalishi, 1-bosqich talabasi*

Markaziy Osiyo hududiga islom dinining kirib kelganidan so'ng, insonlarda islomga bo'lган muhabbat yillar o'tgani sayin ziyoda bo'laverdi va ko'plab islomshunoslik sohalari bo'yicha buyuk olimlar yetishib chiqdi. Xususan, islom dunyosida Qur'oni Karimdan so'ng ikkinchi manba hisoblanuvchi hadis ilmi bo'yicha ham Markaziy Osiyo diyori bir qancha muhaddislarni o'z bag'rida yetishtirdi. Xususan, Imom Buxoriy, Imom Dorimiy, Imom Termiziy, Abdulloh ibn Muborak, Ibn Hibbon, Haysam ibn Kulayb Shoshiy, Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad Barokotiy, Ibrohim ibn Ma'qil Nasafiy va Abd ibn Humayd Keshiy kabi ko'plab olimlarni keltirishimiz mumkin. Bular qatorida movarounnahrlik buyuk muhaddis Imom al-Buxoriy alohida o'rin egallaydi.

Buyuk muhaddis, Hadis ilmining sultonii, Muhaddislar imomi kabi nomlarga sazovor bo'lган Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 810-yili 20-iyul ba'zi manbalarda 21-iyulda Buxoroda tavallud topgan deyiladi[12]. Muhaddisning asl ismi Muhammad, kunyasi Abu Abdulloh, otasining ismi Ismoil bo'lган. Imom al-Buxoriy islom dunyosida "Amir ul-mo'minin fil-hadis" (Hadis ilmi bobida mo'minlar amiri), "Al Imom ul – Miqdom" (Jasur Imom), "Imomul Muhaddisiyn" (Muhaddislar imomi), "Sayyidil Fuqaho" (Faqihlar sayyidi) kabi buyuk maqomlarga sazovor bo'lган. Alloh taolo Imom al-Buxoriyga buyuk zehn ato etgan edi. U bolalik yillardanoq, ustozlarida eshitgan hadislarni yod olardi. Hattoki, o'n yoshidanoq ustozlarini shoshirib qo'yadigan darajaga yetishadi. O'n olti yoshida esa minglab hadislarni yod olib, ular "sahih" va "nosahih"ga ajrata boshlaydi. U milodiy 825-yil, hijriy 210-yilda onasi va akasi Ahmad bilan Makkaga haj safariga otlanadi[1]. Shu zaylda Imom al-Buxoriy hadis o'rganish uchun ko'plab mamlakatlarga sayohat qildi. Xususan, Makka, Marv, Madina, Kesh, Basra, Bog'dod, Nishapur, Shom kabi ko'plar o'lkalarda minglab ustozlardan dars oldi. Muarrix Abu Abdulloh al-Hokim o'zining "Nishapur tarixi" asarida Imom al-Buxoriyning ustozlari haqida qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. Jumladan, Madinadagi ustozlaridan Ibrohim ibn al-Munzir al-Xuzomiy, Abu Sobit Muhammad ibn Ubaydulloh, Makkadagi ustozlaridan Abu al-Valiy Ahmad ibn Muhammad al-Azraqiy, Abu Bakr Abdulloh ibn az-Zubayr al-Hamiydiy, Buxorodagi ustozlaridan Muhammad ibn Salom al-Boykandiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Musnadiy kabi ko'plab ustozlarining ismlarini keltiradi.

Buyuk muhaddis Imom al-Buxoriyning nafaqat ustozlari, balki shogirdlari ham ko‘p bo‘lgan. Manbalarda ta’kidlanishicha, bиргина олимнинг шоҳ асари бо‘lmish “Al-Jome’ as-Sahih”дан унинг раҳбарлигидаги 90 ming kishi ta’lim олган[1]. Imom al-Buxoriy shogirdlari qatoriga Muslim ibn Hajjoj, Imom Termiziy, Imom al-Nasaiy, Ibn Xuzayma, Ibn Abu Dovud, Muhammad ibn Yusuf al-Firabriy, Ibrohim ibn Ma’qal Nasafiy, Hammod ibn Shakar Nasoviy, Mansur ibn Muhammad Bazdaniy каби ко‘plan mashhur olimlarni keltirish mumkin. Hattoki, Imom al-Buxoriyning yoshlik chog‘ida ham shogirdlari ko‘p edi. Qaysi shaharga borsa, унинг atrofini ko‘plab olimlar o‘rab olishar va undan hadislarni yozib olishardi. Ko‘plab shayxlar, faqihlar, olimlar u kishining suhabatida bo‘lishga intilardi.

Muhaddislар imomi bo‘lmish Imom a-Buxoriydan yigirmadan ortiq asar meros qolgan. Улар qatorida “AI-Adab val-mufrad” (“Adab durdonalari”), “At-Tarix al-kabir” (“Katta tarix”), “Al-Avsat” (“O‘rta tarix”), “As-Sag‘ir” (“Kichik tarix”), “Al-Musnad al-kabir” (“Katta musnad”), “Asmoi as-sahoba” (“Sahobalar ismlari”), “At-Tafsir al-kabir” (“Katta tafsir”) va олимнинг шоҳ асари бо‘lmish “Al-Jome’ As-sahih” каби ко‘plab buyuk asarlarni kiritish mumkin[4]. Унинг асарлари ислом оламда nafaqat o‘sha davr uchun, balki bugungi kun va kelajak uchun ham o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Imom al-Buxoriyning shogirdi Muhammad ibn Yusuf al-Furabriy томонидан rivoyat usulida, so‘ng aslidan ko‘chirish usulida bizgacha yetib kelgan, 97 bobdan, 4000 takrорsиз hadis, jami 7082 ta ba’zi manbalarda 7397 ta hadisдан iborat “Al-Jome’ As-sahih” асари устидан олим 16 yil ishlaydi va undagi hadislarni 600 mingta hadis ichidan tanlab oladi[3].

Imom al-Buxoriy hayotining so‘ngi yillarini Samarqand yaqinidagi Kartang qishlog‘ida o‘tkazadi. Hadis ilmining sultonи Imom al-Buxoriy milodiy 870-yil, hijriy 256-yil I’yd al-fitr (“ro’za hayiti”) kuni kechasi vafot etadi va Samarqand viloyati Payariq tumani Kartang qishlog‘iga dafn etiladi. Mustaqillik yillarida buyuk muhaddisning xotirasini abadiylashtirish uchun ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, олимнинг ко‘plab асарлари o‘zbek tilida nashr etildi. 1998-yil 23-oktabrda Samarqandda yubiley tantanalari bo‘lib o‘tdi. Shuningdek, allomaning qabri joylashgan Kartang qishlog‘ida Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi ochildi. Buxoriy merosini keng o‘rganish va uni butun dunyoga targ‘ib qilish maqsadida Birinchi Prezidentimiz Islom Krimov tashabbusi bilan 1998-yil Imom al-Buxoriy xalqaro jamg‘armasi tashkil etildi. Bundan tashqari, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 27-martdagи qarori bilan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi va respublikamizda allomaning hayotiga bag‘ishlab ko‘plab асарлар nashr etilmoqda.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Imom Al-Buxoriy / Ubaydulla Uvatov, Otabek Muhammadiyev; T.: Tafakkur, 2018
2. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/b/buxoriy/>
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Buxoriy>
4. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=501>